

SIYOSIY VA PARLAMENTLARARO ALOQALAR JADAL TUS OLMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-dekabr kuni Koreya Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari parlamentlari rahbarlarining uchinchi uchrashuvida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Koreya Respublikasi Milliy Assambleyasi Spikeri U Von Shik boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQLAR HIMOYASINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA MUHIM TAKLIF VA TASHABBUSLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev fuqaro va tadbirkorlarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, Konstitutsiyaviy sud faoliyatini raqamlashtirish masalalariga oid taqdimot bilan tanishdi.

Joriy yilda o'zining 30 yilligini nishonlayotgan Konstitutsiyaviy sud faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar bajarildi. Jumladan, 2021-yilda Konstitutsiyaviy sud to'g'risidagi qonun yangi tahrirda qabul qilinib, samarali konstitutsiyaviy nazorat tizimi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sud o'z vakolatlari to'laqonli amalga oshirishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib, mazkur yo'nalishdagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish taqozo etilmoqda.

Taqdimotda bu boradagi takliflar ko'rib chiqildi.

Jumladan, Konstitutsiyaviy sud tomonidan har yili mamlakatda konstitutsiyaviy qonuniyligni mustahkamlash bo'yicha taqdim etib boriladigan taklif va tavsiyalarni amalga oshirishning samaradorligi oshirildi.

Bunda Konstitutsiyaviy sud tomonidan fuqaro va tadbirkorlarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartib-taomillari maqbulashtiriladi, sansaraliliklar bartaraf etiladi.

Shuningdek, "konstitutsiyaviy shikoyat" instituti samaradorligini oshirish va murojaat etuvchilarning sud himoyasini ta'minlash maqsadida sud ishida qo'llanilgan qonun Konstitutsiyaga muvofiq emas deb topilgan taqdirda tegishli

sud hujjatini qayta ko'rib chiqish tartibini joriy etish taklif qilindi.

Taqdimotda Konstitutsiyaviy sud faoliyatini raqamlashtirish orqali aholiga qulaylik yaratish masalalari ham muhokama qilindi.

Xususan, Konstitutsiyaviy sud majlislarida masofadan onlayn tarzda ishtirok etish, sud majlislarini internet orqali translyatsiya qilib borish, vazirlik va idoralar o'rtasida elektron axborot almashinuvini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Konstitutsiyaviy sudning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, xorijiy mamlakatlarning konstitutsiyaviy sudlari bilan hamkorlikni mustahkamlash muhimligi ko'rsatib o'tildi. Sudning Osiyo konstitutsiyaviy sudlari assotsiatsiyasiga raisligi doirasida mamlakatimizda va xorijda qator xalqaro tadbirlar o'tkazilishi rejalashtirilgan.

O'dil sudlovni ta'minlashga oid boshqa masalalar, xususan, iqtisodiy va ma'muriy sudlarni aholi hamda tadbirkorlarga yanada yaqinlashtirish ham ko'rib chiqildi. Jumladan, ushbu sudlarga murojaat qilishda ekstritorial sudlovga tegishlilikni avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali hal qilish tashabbusi ilgari surildi.

Prezidentimiz takliflarni qo'llab-quvvatlab, ularni sifatli va tizimli amalga oshirish yuzasidan masalalariga topshiriqlar berdi.

IJTIMOY YORDAM VA BOLALAR MANFAATLARINI TA'MINLASHGA TIZIMLI YONDASHUV

Prezident Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, hududlarda kompleks ijtimoiy va reabilitatsiya xizmatlarini kengaytirish hamda bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilishga qaratilgan takliflar bilan tanishdi.

Kambag'al hamda kambag'allikka tushish xavfi bo'lgan oilalarni aniqlash, ularga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam va xizmatlarni yagona tizim asosida aholining real ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tashkil etish yo'nalishidagi ishlar ko'rib chiqildi.

O'tgan davrda ijtimoiy himoya yagona reestri doirasida 1,8 million oilaning ijtimoiy holati baholanib, 739 ming oila, shu jumladan, kambag'al hamda kambag'allik chegarasidagi oilalar reestrga kiritildi. Ularga nafaqa va moddiy yordamlar tayinlandi.

Endilikda bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida ijtimoiy himoya yagona reestri hamda Kambag'al oilalar reestri negizida ijtimoiy reestr yuritiladi va unda oilalar ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidan kelib chiqib alohida toifalarga – davlat ta'minotidagi oilalar, kambag'al oilalar hamda kambag'allik chegarasidagi oilalarga ajratiladi, har bir toifaga mos yordam va xizmatlar ko'rsatiladi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralarini aholining daromad darajasi va bandlik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda differensial yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Xususan, ayrim toifadagi imkoniyati cheklangan oilalar uchun bandlik talab etmagan holda ijtimoiy yordamlar berish tizimi yo'lga qo'yildi. "mahalla yetilligi"ga mehnat qayit imkoniyati cheklangan va og'ir hayotiy vaziyatdagi oilalarni ijtimoiy reestrga kiritish huquqi beriladi.

Shuningdek, reestrga kiritilgan oilalarning daromadini oshirish, sog'liqni saqlash, bandlik, uy-joy va boshqa yo'nalishlarda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, mehnatga layoqatli a'zolarni bandlikka jalb qilish hamda tadbirkorlikka yo'naltirish choralarini ko'radi.

Uchrashuv avvalida oliy martabali mehmon davlatimiz rahbariga Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chje Myonning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi alohida strategik sheriklikni, jumladan, parlamentlar hamkorligi orqali yanada rivojlanirish masalalari muhokama qilindi.

Siyosiy va parlamentlararo aloqalar jadal tus olgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi hamda Koreyadan, birinchi navbatda, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning soni ortib bormoqda.

Gumanitar va ta'lim almashinuvlari kengaymoqda. O'zbekistonda Koreya yetakchi universitetlarining to'rtta filiali, shuningdek, mamlakatimiz hududlaridagi professional ta'lim markazlari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda.

Infratuzilmani rivojlantirish, transport va logistika, nodir metallar va o'ta muhim xomashyoni qayta ishlash, shuningdek, qonun ijodkorligi faoliyatini raqamlashtirish va boshqaruvda ilg'or yechimlarni joriy etish bo'yicha kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish qo'llab-quvvatlandi.

Parlamentlararo hamkorlik dasturini ishlab chiqish hamda parlamentlardagi "do'stlik guruhlari" ishini faollashtirish muhimligi ta'kidlandi.

Bo'lajak oliy darajadagi, jumladan, "Markaziy Osiyo – Koreya Respublikasi" sammiti doirasidagi tadbirlarning kun tartibini puxta tayyorlash zarurligi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI RASMIY TASHRIF BILAN YAPONIYADA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining taklifiga binoan 18 – 20-dekabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ladi.

Tashrif dasturiga muvofiq, Tokio shahrida Yaponiya Imperatori Naruxito, Bosh vazir Sanae Takaichi, Parlament rahbariyati, hukumat a'zolari, siyosiy partiyalar vakillari va yetakchi universitetlar rektorlari bilan uchrashuvlar va muzokaralar o'tkazish rejalashtirilgan.

Kun tartibidan O'zbekiston – Yaponiya strategik sheriklik munosabatlari va ko'p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish hamda rivojlantirish masalalari o'rin olgan.

Ishbilarmonlik dasturi doirasida Yaponiyaning yirik kompaniyalari va moliya institutlari rahbarlari ishtirokidagi uchrashuvlar va tadbirlar o'tkazilishi rejalashtirilgan. Savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish hamda investitsiya loyihalarini ilgari surish masalalari atroflicha muhokama qilinadi. Ikki tomonlama hujjatlarining salmoqli to'plami qabul qilinishi kutilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti, shuningdek, "Markaziy Osiyo + Yaponiya" muloqoti davlat rahbarlarining birinchi sammitida ishtirok etadi. Tadbir doirasida "yashil" iqtisodiyot va barqaror taraqqiyot, o'zaro bog'liqlik va mintaqaviy sheriklikni mustahkamlash hamda inson resurslarini rivojlantirish kabi ustuvor sohalarida hamkorlik istiqbollari muhokama qilinadi.

Sammit yakunlari bo'yicha Tokio deklaratsiyasini qabul qilish rejalashtirilgan.

O'ZA.

O'zbekiston – Yaponiya: STRATEGIK SHERIKLIK CHEGARALARI KENGAYMOQDA

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiya Bosh vaziri Sanae Takaichining taklifiga binoan 18 – 20-dekabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ladi hamda "Markaziy Osiyo+Yaponiya" muloqotining oliy darajadagi sammitida ishtirok etadi.

Biz va jahon

1992-yil 26-yanvarda diplomatik munosabatlarni o'rnatilganidan buyon ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish O'zbekistonning Osiyo – Tinch okeani mintaqasidagi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. An'anaviy o'zaro hammat va ishonchga tayanib, Toshkent va Tokio bugungi kunda siyosat, xavfsizlik, iqtisodiyot, investitsiyalar, innovatsiyalar, ta'lim, madaniyat, turizm va mintaqaviy shakllardagi munosabatlarni qamrab olgan keng ko'lami hamkorlikni yo'lga qo'ymoqda.

Yaponiya sanoat va energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli transformatsiya, barqaror taraqqiyot, ta'lim va fan, madaniy-gumanitar almashinuv masalalarida an'anaviy ravishda muhim strategik sherik bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik samarali va jadal rivojlanmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil dekabr oyida Yaponiyaga rasmiy tashrifi muloqot rivojida tub bulirish yasadi. Ushbu tashrif yirik qo'shma iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar loyihalarni amalga oshirishda muhim strategik sherik bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik samarali va jadal rivojlanmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil dekabr oyida Yaponiyaga rasmiy tashrifi muloqot rivojida tub bulirish yasadi. Ushbu tashrif yirik qo'shma iqtisodiy, investitsiyaviy va gumanitar loyihalarni amalga oshirishda muhim strategik sherik bo'lib kelmoqda.

oshirishga turtki berdi hamda uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan hamkorlik vektorini belgiladi. Xalqaro maydonda O'zbekiston va Yaponiya xalqaro tashkilotlar doirasida ham samarali hamkorlik qilib, bir-birining pozitsiyalarini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Ya'ni O'zbekiston Yaponiyaning BMT organlariga nomzodini 40-martadan ortiq qo'llab-quvvatlagan, Tokio esa O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining qator rezolyutsiyalari, jumladan, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud, ma'rifat va diniy bag'rikenglik, yoshlarni qo'llab-quvvatlash va Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlarning roli to'g'risidagi rezolyutsiyalarning hammualiflari bo'lgan.

O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi parlamentlararo hamkorlik ham ikki tomonlama munosabatlarning strategik xususiyatidan dalolat beradi. Ikki mamlakat parlamentlarida do'stlik guruhlari tashkil etilgan, "O'zbekiston – Yaponiya" parlamentlararo forumining yig'ilishlari muntazam o'tkazilmoqda, o'zaro tashriflar amalga oshirilmoqda, uchrashuvlar va onlayn muzokaralar bo'lib o'tmoqda.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

AHOLI FAROVONLIGI VA EKOLOGIK BARQARORLIKNING MUSTAHKAM ASOSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda ekologik toza hududlarning huquqiy maqomini belgilashga, davlat fuqarolik xizmatini o'tash tartibini takomillashtirishga, mahalliy farmatsevtika korxonalarini quvvatlarini oshirishga, tergov hibsxonalarida saqlanayotgan shaxslarning huquqlari, manfaatlarini ta'minlashga, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish yo'nalishidagi huquqbuzarliklarning oldini olishga, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga doir qator qonun loyihalar atroflicha ko'rib chiqildi. Shuningdek, parlament nazorati faoliyatiga doir masala ham muhokamalar markazida bo'ldi.



SENATNING YALPI MAJLISINI CHAQIRISH TO'G'RSIDA QAROR QABUL QILINDI

Oliy Majlis Senati Kengashining majlisi bo'lib o'tdi. Unda Senatning o'n ikkinchi yalpi majlisini 2025-yil 18-dekabr kuni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Yig'ilish

Yalpi majlis kun tartibiga jamiyat hayoti, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy soha, qonunchilikni takomillashtirish hamda parlament nazoratiga oid 24 ta masala

kiritildi.

Xususan, majlisda "2026-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi hamda 2025-yil

uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqidagi qonunlar, shuningdek, soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqib qator qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq qonunlar ko'rib chiqilishi nazarda tutilgan.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n ikkinchi yalpi majlisi ochilishi to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining o'n ikkinchi yalpi majlisi 2025-yil 18-dekabr kuni soat 10:00 da Toshkent shahrida Oliy Majlis Senatining majlislar zalida o'z ishini boshlaydi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'idagi sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib boriladi.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.

O'ZA.



Uchinchi Renessans:

OʻTMISH VA KELAJAKNI BOGʻLOVCHI ULUGʻVOR GʻOYA

Shu maʼnoda, pokistonlik taniqli yozuvchi va publitsist Muhammad Abbas Xonning urdu tilida nashr etilgan “Oʻzbekiston: uchinchi Renessans – taraqqiyot konsepti” nomli asari alohida ahamiyatga ega. Ushbu kitob uchinchi Renessans gʻoyasining xalqaro ilmiy-falsafiy talqini sifatida eʼtiborni tortadi. Asarda jahon miqyosida davlat va siyosat arbobi sifatida tan olinayotgan Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan uchinchi Renessans poydevorini yaratish tashabbusi buyuk oʻzgarishlar loyihasi, ufqlar izmiga boʻysunmas, abadiy qimmatga ega gʻoya sifatida yoritiladi.

Mazkur asarda muallif uchinchi Renessans gʻoyasini zamonamizning yangi global modeli sifatida ochib beradi. Bu muayyan davr yoki hudud bilan cheklanib qolmaydigan, balki butun insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiladigan keng qamrovli qarashdir.

Kitobga Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Muhammad Shahboz Sharif janoblarining kirish soʻz yozgani ham mazkur gʻoyaning xalqaro nufuzi va eʼtirofini yaqqol namoyon etadi. Qolaversa, Pokiston davlatining Oʻzbekistonga boʻlgan yuksal qatordagi hamkorlik munosabatlari izchil ravishda mustahkamlanib borayotganidan ham dalolat beradi.

Taʼkidlash joizki, uchinchi Renessans gʻoyasi abadiy qudratga ega. U oʻtmish merosini inkor etmaydi, aksincha, uni zamonaviy taraqqiyot talablari va kelajak maqsadlari bilan uygʻunlashtiradi. Asarda davlat rahbarining insonparvarlikka asoslangan yangi qarashlari keng yoritilib, ushbu gʻoyalar tarix yoʻnalishini oʻzgartirish

va kelajakni shakllantirishga qodir ekani alohida taʼkidlanadi. Muallif nazaricha, uchinchi Renessans gʻoyasi inson tafakkurining bemiʼl ummoniga quyiladigan qudratli darvoza oʻxshaydi.

Asarda taʼkidlanganidek, uchinchi Renessans gʻoyasining asosiy mohiyati insonparvarlik va zamonaviy texnologiyalar uygʻunligidan iborat. Ilgarigi renessanslar, asosan, ilm-fan va bilim taraqqiyoti bilan belgilangan boʻlsa, yangi Uygʻonish davri maʼnaviyat, axloq va ilmiy-texnik

Mutolaa

taraqqiyotning birgalikda rivojlanishini taqozo qiladi. Bu gʻoya insoniyatni milliy yopiqlikdan umumbashariy tafakkurga olib chiqishga, texnologiyalarga axloqiy chegaralar belgilashga, ilm-fandan ezigulik yoʻlida foydalanishga daʼvat etadi. Demak, masala faqat taraqqiyot surʼatida emas, balki uning inson manfaatlariga qanday maqsadda xizmat qilayotganidir.

Kitobda Qurʼoni karimning ilm-fan taraqqiyotida tutgan oʻrniga ham alohida eʼtibor qaratiladi. U faqat diniy manba sifatida emas, balki tafakkurni kengaytirgan, insonni izlanish va kashfiyotga undagan maʼnaviy dastak sifatida talqin etiladi. Muallif nazdida, millatning kelajak sari tanlagan yoʻli qadriyatlar, bilim kuchi, madaniy boylik va insonparvarlik tamoyillariga tayanadi. Bu qarashlar nafaqat davlat rahbarining siyosiy pozitsiyasini, balki mamlakat kelajagi uchun yuksal tarixiy masʼuliyatini ham ifodalaydi.

Prezident maktablari esa kelajak ixtiroxonalari sifatida baholanadi. Oʻzbekiston yangi avlodni

yuqori malakali mutaxassislar, ayni chogʻda, mustaqil fikrlaydigan, halol va pok insonlar etib tarbiyalashni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan. Millat yetakchisi orzusidagi Renessansni davom ettirish va uni yanada chuqurlashtirish esa, avvalo, yoshlar zimmasiga katta masʼuliyat yuklaydi.

Yoshlarning intilishi, ajdodlarning bilim va mehnatni eng oliy qadriyat deb bilgani, adolati va maʼrifatli jamiyat haqidagi orzularini roʻyobga chiqarishga chorlaydi. Yangi Renessans gʻoyasi – kuchli shaxslar tanlovi. Bu nafaqat muayyan tarixiy davr, balki qalb amri hamdir.

Uchinchi Renessans gʻoyasi olamni fath etishni emas, uni anglashni, hukmronlikni emas, hamkorlikni, bilimni shunchaki koʻpaytirishni emas, uni insoniyat manfaatiga xizmat qildirishni anglatadi.

Muhammad Abbas Xon asarida uchinchi Renessans gʻoyasi Oʻzbekistonning milliy taraqqiyot konsepsiyasidan ham kengroq maʼno kasb etishi, yangi global uygʻunlik va insonparvar dunyo modeliga asos boʻlishi alohida taʼkidlanadi. Zero, bugun Oʻzbekiston yangi tarixiy bosqich ostonasida turibdi. Uchinchi Renessans gʻoyasi xalqimizni, ayniqsa, yosh avlodni yangi tadqiqotlar, kashfiyotlar va yangi maʼnaviy uygʻonish sari undab kelmoqda. Chunki bu gʻoyaning manbal – oʻtmishda, ehtiyoji – bugun, buyuk maqsadi esa – kelajakdadir.

Bahrom ABDUHALIMOV,
Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti,
xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi deputati.

TAMADDUNNING UYGʻUNLASHUV POYDEVORI

Turkiy davlatlar oʻrtasidagi hamkorlik soʻnggi yillarda mutlaqo yangi bosqichga koʻtarildi. Siyosiy,iqtisodiy,madaniy va ilmiy sohalarida olib borilayotgan integratsiya jarayonlari oʻz miqyosi hamda istiqbollari bilan nafaqat mintaqa,balki global geosiyosiy maydonda ham alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi Oʻzbekiston tashabbuslari turkiy olam uchun yangi ilmiy va madaniy platforma vazifasini oʻtayapti. Prezidentimizning turkiy davlatlar bilan hamkorlikni kengaytirish boʻyicha qator tashabbuslari natijasida taʼlim sohasidagi akademik almashinuvlar, qoʻshma ilmiy markazlar,umumiy darsliklar tayyorlash,innovatsiya hamda texnologiyalar yoʻnalishidagi birgalikdagi loyihalar ham kengaytdi.

Fikr

Shu oʻrinda Qoʻqon universiteti, Otaturk universiteti, Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi, Ozarbayjon arxitektura va qurilish universiteti hamkorligidagi 2025-2026-yillarga moʻljallangan uch bosqichli xalqaro konferensiyalar sikli turkiy olamni yangi intellektual va ilmiy-amaliy hamkorlik nuqtasiga olib chiqayotgani bilan alohida ahamiyatga ega.

Joriy yil noyabrda Boku shahrida oʻtgan “Zamonaviy lpak yoʻli boʻylab turkiy davlatlarning ijtimoiy-madaniy integratsiya jarayonlari: muammolar va istiqbollar” mavzuidagi xalqaro konferensiya turkiy dunyo ilmiy jamoatchiligi uchun muhim voqea boʻldi. Bu anjuman nafaqat nazariy masalalarni muhokama qilish, balki umumiy kelajak uchun aniq amaliy vazifalarni belgilab olish imkonini ham berdi.

Turkmiy mamlakatlarning akademik hamda siyosiy doiralardan kelgan ziyolilar, olimlar va ekspertlar dunyoda yuz berayotgan global oʻzgarishlar fonida turkiy integratsiyaning yangi modellari ishlab chiqish zarurligini taʼkidladi. Anjumanda bildirilgan fikrlarga koʻra, turkiy dunyo integratsiyasi, bu – umumiy tarix, maʼnaviyat va ilm-fan asosida barpo etiladigan tamaddun poydevori.

Turkiy davlatlar olimlari uchun yagona ilmiy atamalar bankini yaratish masalasi ham anjumanda alohida muhokama qilindi. Bugungi kunda turkiyalik, oʻzbekistonlik, ozarbayjonlik, qozogʻistonlik yoki qirgʻizistonlik olimlar bir xil fan sohasida turlicha atamalardan foydalanishi hamkorlikni

qiyinlashtirayotgani aytiladi. Yagona bazaning yaratilishi ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish, qoʻshma loyihalarni amaliy jihatdan yengillashtirish, taʼlim platformalari uchun standartlar yaratish, xullas, turkiy ilm-fanini yagona makonga aylantirishga katta imkoniyatlar eishigini ochishi alohida taʼkidlandi va amaliy ishlar rejalashtirib olindi.

Anjuman yakunida zamonaviy lpak yoʻli boʻylab yangi turkiy integratsiya modeli ishlab chiqildi. Mazkur model madaniy uygʻunlikni, taʼlim va fanning birdamligini, iqtisodiy hamkorlikni, global maydonda oʻz oʻrnini mustahkamlashni taʼminlaydigan yangi sivilizatsion poydevor sifatida namoyon boʻlmoqda.

Boku anjumani shuni koʻrsatdiki, turkiy davlatlar birlashishni jadallashtirmoqda. Nufuzli tadbirda Qoʻqon universiteti delegatsiyasining ishtiroki nafaqat oʻziga xos ilmiy-amaliy hodisa, balki turkiy dunyo universitetlari oʻrtasidagi strategik hamkorlikning yangi davrini boshlab berdi. Qoʻqon universiteti delegatsiyasi forum doirasida turli ilmiy seksiyalarda maʼruzalar bilan qatnashib, zamonaviy turkiy jamiyatlar oʻrtasidagi taʼlimi-madaniy jarayonlar, integratsiya tamoyillari va qardosh xalqlar oʻrtasidagi ilmiy aloqalarning istiqbollari haqida qator dolzarb fikrlarni ilgari surdi.

Xususan, turkiy davlatlarni birlashtiruvchi maʼnaviy merosni zamonaviy taʼlim tizimiga integratsiya qilish, adabiyot, madaniyat va tarixiy merosni ilmiy tadqiq etishda qoʻshma loyihalarni yoʻlga qoʻyish, yoshlar



oʻrtasida madaniy dunyoqarash, vatanparvarlik va umurturkiy totuvlikni mustahkamlashda taʼlim muassasalarining rolini oshirish, oliy taʼlim muassasalari oʻrtasida akademik mobillik imkoniyatlarini kengaytirish shular sirasiga kiradi.

Eʼtiborlisi, anjuman doirasida strategik ahamiyatga ega hamkorlik: ikki muhim memorandum imzolandi. Birinchisi, Qoʻqon universiteti va Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasining Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti oʻrtasidagi memorandum boʻlib, ushbu hujjat quyidagi muhim yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi: qoʻshma ilmiy-tadqiqot dasturlarini amalga oshirish; adabiy meros va turkiy sivilizatsiya tarixi boʻyicha ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish, ilmiy maqolalar, monografiyalar va qoʻshma toʻplamlar tayyorlash, professor-oʻqituvchilar va tadqiqotchilar almashinuvini yoʻlga qoʻyish.

Ikkinchi memorandumni “INGLA School Baku” tashkiloti bilan taʼlimiy hamkorlik – akademik integratsiyaning yangi modeli sifatida baholash mumkin. Bu hamkorlik til oʻrganish va taʼlim dasturlari boʻyicha qoʻshma loyihalar, talabalar va oʻqituvchilar almashinuvi, xalqaro taʼlim standartlari asosida oʻquv dasturlarini yaratish, ikki davlat yoshlari oʻrtasida doʻstlik va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishdek juda ahamiyatli yoʻnalishlarni oʻz ichiga oladi.

Bu tashabbus, ayniqsa, yosh avlodda umurturkiy maʼnaviyatni mustahkamlashga qaratilgan muhim yoʻnalish sifatida eʼtirof etildi. Kelishuvlarga muvofiq, 2026-yildan boshlab Ozarbayjondan kelgan talaba yoshlar Qoʻqon universitetida

oʻqishni boshlaydi. Bu tarixiy qadam natijasida turkiy davlatlar talaba-yoshlari oʻrtasida madaniy birlik mustahkamlanadi, Oʻzbekistonning taʼlim sohasidagi global qadamlariga bardavomlik boʻladi; universitetda koʻp millatli akademik muhit yaratilib, oʻquv jarayonining sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Umuman, Boku anjumani Qoʻqon universiteti uchun nafaqat xalqaro hamkorlikning navbatdagi bosqichi, balki turkiy ilm-fan makonidagi salmoqli oʻrnini yanada mustahkamlab beruvchi muhim marra boʻldi.

Darvoqe, 2026-yil oktabr oyida Qoʻqon shahrida oʻtkazilishi rejalashtirilgan uchinchi bosqich – “Zamonaviy lpak yoʻlida turk davlatlarining ijtimoiy-iqtisodiy integratsiya jarayonlari: muammolar va imkoniyatlar” – Markaziy Osiyo tarixida ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyaning amaliy yoʻnalishlarini ilgari suruvchi hamda birlashtiruvchi nufuzli ilmiy-amaliy forum sifatida boʻlib oʻtishi kutilmoqda. Uch bosqichli ushbu xalqaro integratsiya konferensiyasi turkiy dunyo uchun oʻziga xos “Yoʻl xaritasi” vazifasini bajaradi. Bu jarayonning Boku, Arzurum va Qoʻqon bosqichlari oʻzaro uygʻun holda turkiy makonning siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy taraqqiyot, taʼlim, madaniyat va innovatsiyalar sohalaridagi integratsiyasiga asos solmoqda.

Turkiy integratsiya bu – kelajakning yangi arxitekturasidir. Bu arxitekturaning poydevori esa qardosh xalqlarning oʻzaro ishonchi, hamjihatligi, innovatsion salohiyati va birgalikda rivojlanishga intilishidir. Shunday ekan, turkiy dunyo uchun bu integratsiya nafaqat strategik maqsad, balki yangi sivilizatsion oʻzlikni shakllantirayotgan ulkan jarayondir.

Zebo QOBILOVA,
Qoʻqon universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektori, filologiya fanlari doktori, professor.



HAR MANZILI TAASSUROTLAGA BOY ZAMIN

Yurtimiz tabiati va tarixiy maskanlari oʻziga xos. Qadim shaharlarimiz,betakror meʼmoriy obidalar, choʻl bagʻrida joylashgan koʻllar hamda koʻrkam tabiiy hududlar har bir insonda ajib taassurot qoldiradi. Ana shu boy tarix,noyob manzaralar va xalqimizning azaliy mehmondoʻstligi Oʻzbekiston turizm salohiyatining asosini tashkil etadi.

Sarhisob

Milliy taraqqiyot lokomotivi

Bugun turizm faqat dam olish yoki sayohat qilish bilan cheklanib qolmay mamlakat iqtisodiyotining muhim tayanchi, uni harakatga keltiradigan lokomotiv tarmoqlardan biriga aylanmoqda. Sohada yaratilayotgan ish oʻrinlari, xizmatlar eksportining oshishi va investitsiyalarning jalb etilishi iqtisodiy oʻsishga kuchli turtki bermoqda.

Yakuniga yetib borayotgan yilda mamlakatimiz turizm sohasida barqaror oʻsish kuzatildi. Oʻn bir oy davomida Oʻzbekistonga 10,7 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurdi, bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davridagiga nisbatan 114 foiz oshganini koʻrsatadi. Turizm xizmatlari eksporti hajmi 4,4 mlrd. AQSh dollariga yetib, oʻsish surʼati 144 foizga teng boʻldi. Ushbu raqamlardan turizm mamlakatimiz iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biriga aylanib borayotganini yaqqol koʻrish mumkin.

Xorijiy turistlar geografiasining kengayishi alohida eʼtiborga molik. Xitoydan tashrif buyurgan sayyohlar soni 2024-yildagiga nisbatan 3,7 barobar oshdi. Avstraliya va Yaponiyadan kelganlar avvalgi koʻrsatkichdan 1,5-marta yuqori, Fransiya va Kanadadan 1,3 barobar koʻpaydi. AQSh, Ispaniya, Turkiya, Polsha, Niderlandiya, Malayziya hamda Hindistondan tashriflar koʻrsatkichi 1,2-martaga, Germaniya, Italiya va Janubiy Koreyadan esa 1,1 karraga oʻsdi. Bu holat Oʻzbekistonning xalqaro turistik bozordagi jozibadorligi tobora ortayotganidan dalolat beradi.

Ichki turizm ham izchil rivojlanmoqda. “Oʻzbekiston boʻylab sayohat qil” dasturi doirasida aholining hududlarga 23,7 mln. marta tashrifi amalga oshirildi. Yil boshida ezgu niyatlar bilan tuzilgan reja 114,8 foizga bajarildi. Bu koʻrsatkichlar yurtdoshlarimizda mamlakatimizning diqqatga sazovor joylarini ziyorat etishga boʻlgan qiziqish kuchaygani, ichki turizm ijtimoiy harakatga aylanayotganini anglatadi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish sohadagi asosiy yoʻnalishlardan biri boʻldi. Hududlarda 954 ta yangi joylashtirish maskani faoliyati yoʻlga qoʻyildi.

Hududiy turizmi rivojlantirishda Jizzax viloyatida amalga oshirilgan loyiha alohida ahamiyat kasb etdi. Aydarkoʻl sohida zamonaviy “Aydarkoʻl Resort” dam olish maskani ishga tushirildi. Ushbu turistik manzilda 594 oʻrinli joylashtirish majmuasi, 200 oʻrinli ikki qavatli sanatori, 294 oʻrinli xostel, toʻrt xil tipdagi 100 oʻrinli 40 ta kapsula, avtokarting, bolalar maydoni hamda voleybol stadionlari barpo etildi. Dam olish maskanining ishga tushirilishi natijasida 20 ta yangi turizm xizmati yoʻlga qoʻyildi va 1000 nafar kishi ish bilan taʼminlandi. Sohil hududida tapchanlar, plajay soyabonlari, qayiq va yaxtalar, restoran va kafelar, ochiq bassayn hamda sanitariya-gigiyena shoxobchalari faoliyat yuritmoqda. Ushbu markazda har yili 100 ming xorijiy va 500 ming mahalliy sayyohni jalb etish rejalashtirilgan.

Zamonaviy infratuzilmaga ega, xizmat turlari keng boʻlgan turizm maskanlari sonining ortib borishi sohada bilimli, tajribali va masʼuliyatli kadrlarga ehtiyojni yanada oshirmoqda. Sayyohlarga koʻrsatilayotgan xizmat sifati, hududning jozibadorligi va mamlakat imji koʻp jihatdan aynan mutaxassislar mahoratiga bogʻliq. Shu bois turizm sohasida kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy salohiyatini oshirish hamda xizmat koʻrsatish madaniyatini yuksaltirishga alohida eʼtibor qaratilyapti. Xususan, joriy yilning oʻn bir oyida 375 nafar yangi gid tayyorlandi. Ayni paytda mamlakatimiz boʻylab 4345 nafar gid-ekskursovod faoliyat olib bormoqda.

Sayyohlikda strategik yuksalish

Gastronomik turizm sohasida ham muhim qadamlar tashlanmoqda. Shu yilning 14-dekabrda Xiva shahrida “Xorazm palovi” xalqaro festivali boʻlib oʻtdi.

– Zamonaviy “Arda Xiva” majmuasida oʻtgan festivalda ulkan qozonda bir vaqtning oʻzida 9 tonna xorazmcha palov tayyorlandi, – deydi Xorazm viloyati turizm boshqarmasi boshligʻi oʻrinbosari

Azamat Xoʻjayev. – Mazkur jarayonda 2,5 tonna goʻsht, 3 tonna sabzi, 2,5 tonna guruch va 750 litr paxta yogʻi ishlatildi. Ushbu gastronomik tadbir milliy oshxona anʼanalarini targʻib etish orqali hududning turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mamlakatimizda turizm qishloqlari va mahallalarini tashkil etish orqali yangi yoʻnalishlar shakllantirildi.

Betakror tariximiz, ekomanzaralarga boy turizm maskanlari, shuningdek, milliy anʼana va qadriyatlarimiz yil davomida xorij axborot maydonida keng va tizimli tarzda targʻib qilinmoqda. Xususan, 21 davlatda oʻtkazilgan koʻrgazma va yarmarkalarda ishtirok etildi. Rossiya va Xitoyda “Oʻzbekiston turizm yili” doirasida madaniy tadbirlar uyushtirildi. Yigirma davlatda 30 ta “road show” va taqdimotlar oʻtkazildi.

Ayni kunlarda ham Budapest shahri markazida mamlakatimiz haqidagi videoroliklar namoyish etilmoqda. Xalqaro mediaplatformalarda 50 ga yaqin kontentlar joylashtirildi. “Euronews” telekanalida



Samarqand, Buxoro, Xiva va Navoiy viloyatlari haqida maxsus koʻrsatuv efigra uzatildi. Mana shunday tadbirlar davomi sifatida Kuala-Lumpur – Toshkent aviaqatnovi ochilishi munosabati bilan Janubi-Sharqiy Osiyo boshqarilishi mamlakatimiz tashkil etilishi sayyohlar oqimining yanada ortishiga munosib turki boʻlsa ajabmas.

Turizm sohasida barqaror rivojlanishni taʼminlashda investitsiyalarni faol jalb etish hal qiluvchi omillardan biri. Zero, zamonaviy infratuzilma, sifati xizmat va xalqaro standartlarga javob beradigan turizm obyektlari aynan investitsiya loyihalari orqali yaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, investitsiya muhitining yaxshilanishi mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish va uning jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur yoʻnalishda 421 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 6313 dan ortiq ish oʻrinlari yaratildi. Toshkent shahrida “JW Marriott”, “Swissotel” hamda “Azimut” kabi nufuzli xalqaro brendlar oʻsishiga mehmonxonalarining ochilishi mamlakatimiz turizm infratuzilmasi yangi bosqichga koʻtarilganidan dalolatdir. Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Navoiy viloyatida yirik turizm klasterlarining ishga tushirilishi hududiy turizمنى rivojlantirish va yangi turistik oqimlarni jalb etishda muhim oʻrin tutmoqda.

– Sohadagi islohotlar va investitsiyalarning samarasi sifatida ilk bor Oʻzbekistonga “MICHELIN Key” xalqaro mukofotining taqdim qilinishi tarixiy voqea boʻldi, – deydi Turizm qoʻmitasi boshqarma boshligʻi Oybek Hakimov. – “InterContinental Tashkent” mehmonxonasiga ushbu mukofotning berilishi mamlakatimizda xizmat koʻrsatish sifati xalqaro standartlarga toʻliq mos kelayotgani hamda turizm sohasining raqobatbardoshligi oshib borayotganini yaqqol tasdiqladi.

Umuman, yil boʻyi amalga oshirilgan ishlar turizمنى mamlakat iqtisodiyotining barqaror drayverlaridan biri sifatida mustahkamladi. Bu jarayon Oʻzbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, aholi bandligini taʼminlash va xizmatlar eksportini kengaytirishga imkon bermoqda. Turizm sohasidagi ushbu izchil harakatlar kelgusida ham yurtimizni jahon xaritasida yanada yorqinroq namoyon etishi, shubhasiz.

Ulugʻbek ROʻZIMATOV
 (“Xalq soʻzi”).

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan takliflar asosida hukumat qarori bilan qonunchilikdagi tadbirkorlikka oid 1600 ta majburiy talab bekor qilindi.

AHOLI FAROVONLIGI VA EKOLOGIK BARQARORLIKNING MUSTAHKAM ASOSI



Qonun loyihasi mas'ul qo'mitaga qaytarildi

Majlisda bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishda moddama-modda muhokama qilindi.

Unda ta'lim tashkilotida bolalarni tarbiyalash, ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlar zimmasiga yuklatilgan shaxs tomonidan tarbiya va ta'lim berish jarayonida bolaga nisbatan zo'rovonlik holatlari sodir etilganligi uchun ma'muriy javobgarlik belgilanmoqda.

Notariuslar zimmasiga bolani farzandlikka berish (olish), vasiylikka yoki homiylikka berish haqida arizadagi imzoning haqiqiyliги shahodatlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlariga taqdim etib berish majburiyati yuklatilyapti.

Vasiy yoki homiy o'z yashash joyini o'zgartirmoqchi, shu jumladan, boshqa mamlakatga ko'chib ketmoqchi bo'lsa, vasiylik va homiylik organining yozma ruxsati va vasiylikka olingan 10 yoshga to'lgan bolaning roziligi talab etilishi belgilanmoqda.

Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo'linmalari ota-ona yoki otionalik huquqidan mahrum etilgan shaxslardan bolaning sog'lig'ini tiklash va reabilitatsiya qilish uchun qo'shimcha xarajatlarni bola foydasiga undirish haqida kiritilgan arizalar bo'yicha davlat boji to'lashdan ozod etilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi qizg'in bahslarga sabab bo'ldi. Deputatlar tomonidan loyihaaning ayrim normalari yuzasidan e'tirozlar bildirildi. Tegishli moddalarni qayta ishlash va maromiga yetkazish bo'yicha takliflar ilgari surildi. Uzoq davom etgan muhokama va savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi mas'ul qo'mitaga qaytarildi.

Ayrim normalar qizg'in muhokamaga sabab bo'ldi

"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar ustidan nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Jinoyat-ijroiya kodekslari hamda "Probatsiya to'g'risida"gi Qonunga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar ustidan probatsiya nazoratini amalga oshirishning aniq huquqiy tartiblari belgilab qo'yilmoqda.

Majlisda deputatlar tomonidan bir qator savollar o'rta-ga tashlandi. Ayrim normalarni qayta ishlash va maromiga yetkazish bo'yicha qator takliflar bildirildi. Qizg'in savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi mas'ul qo'mitaga qaytarildi.

Bir martalik plastik mahsulotlar muomalasi cheklanishi mumkin

Majlisda ekologik toza hududlarning maqomini belgilash, plastik mahsulotlarning muomalasini tartibga solishga

Narkojinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik kuchaytiriladi

Majlisda ko'rib chiqilgan navbatdagi hujjat – giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikni takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi bo'ldi.

Bu bilan Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilmoqda. Xususan, Jinoyat kodeksi aholi salomatligi va genofondiga qarshi jinoyatlarga oid alohida bob bilan to'ldirilib, aholi salomatligi va genofondiga jiddiy xavf soluvchi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi yangi moddalar kiritilmoqda. Shuningdek, Jinoyat kodeksiga narkotiklarning noqonuniy muomalasiga hokimiyat (mansab) vakolatlarini suiiste'mol qilish yo'li bilan homiylik (rahnamolik) ko'rsatish hamda g'ayriqonuniy narkolaboratoriya tashkil etish va uning faoliyat yuritishini ta'minlash kabi qilmishlar uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutuvchi yangi normalar belgilanmoqda.

Muhokama davomida deputatlar tomonidan giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik choralarni takomillashtirishga oid masala ko'tarildi. Xususan, amaldagi jazo choralari hamda qonun tashabbuskorlari tomonidan taklif etilayotgan tahrir orasidagi ayrim nomuvofiqliklar yuzasidan fikrlar bildirildi.

Majlisda qonun loyihasining konsepsiyasi amaldagi Jinoyat kodeksiga mosligi, tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilganligi, ilmiy-ekspert xulosalarining mavjudligiga e'tibor qaratildi. Shuningdek, qonun loyihasidagi kamchiliklarni loyihaaning konsepsiyasini buzmagani holda, ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida mas'ul qo'mita va mutaxassislar ishtirokida takomillashtirish lozimligi qayd etildi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Davlat fuqarolik xizmati tizimida muhim yondashuv

Deputatlar "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining tuzilmasi hamda davlat fuqarolik xizmati tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasini birinchi o'qishda ko'rib chiqdi.

Ushbu qonun loyihasida ham qator muhim normalar aks etmoqda. Xususan, bojxona, ichki ishlar, prokuratura, Milliy gvardiya xodimlari va sudyalalar Administratsiya rahbari farmoyishi bilan tayinlanadigan lavozimga o'tganda ushbu organlar kadrlar zaxirasiga kiritilishi nazarda tutilyapti.

Shuningdek, davlat xizmatiga ilk bor qabul qilingan xodimlar bilan mehnat shartnomasi dastlab bir yil muddatga tuzilishi, "Davlat xizmatiga kirish" maxsus kurslarini va malaka oshirish o'quvlarini o'tashi hamda inson resurslarini boshqarishga oid ma'lumotlar va hujjatlar faqatgina "hrm.argsos.uz" platformasida shakllantirilishi belgilanmoqda.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasining ahamiyati, amaliy zarurati va ayrim normalarning mazmun-mohiyati yuzasidan qonun tashabbuskorlariga savollar berdi. Loyihani yanada takomillashtirish, uni qonuniy va huquqiy jihatdan mukammal holatga keltirish bo'yicha bir qator fikr-mulohazalar bildirildi. Mutasaddilar tomonidan deputatlarni qiziqtirgan masalalar yuzasidan atroflicha tushuntirishlar berildi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Sohada texnologiyalar transferi uchun qonuniy asos

Majlisda "Farmatsevtika faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va

qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokama markazida bo'ldi.

Qayd etilganidek, mamlakatimizda so'nggi yillarda farmatsevtika sohasini rivojlantirish, yuqori talabga ega bo'lgan dori vositalari va tibbiy buyumlarni mahalliyashtirish, yangi investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni qo'llab-quvvatlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda aholini sifati va arzon mahsulotlar bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Loyihada hujayra texnologiyasi asosida ishlab chiqarilgan biotexnologiya vositalarini dori vositalari sifatida e'tirof etish va sog'liqni saqlash amaliyotida qo'llashning huquqiy asoslarini belgilash nazarda tutilyapti.

Muhokama davomida deputatlar qonun loyihasining ahamiyatiga o'txalib, undagi qator normalar yuzasidan qonun tashabbuskorlariga savollar berdi, loyihani yanada takomillashtirish bo'yicha o'z taklif va mulohazalarini bildirdi. Mutasaddilar tomonidan savollarga atroflicha javoblar berildi.

Xususan, O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi Gulchehra Tojiboyeva loyihada mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilar uchun davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnomaning amal qilish muddati besh yil etib belgilanayotgani, shuningdek, bu davrda ayni ishlab chiqarilgan

mahsulotning guvohnoma muddati tugaganidan so'ng 180 kalendar kun ichida amaliyotda qo'llash, ya'ni import qilish nazarda tutilayotganini ta'kidlab, shu muddat ichida aholini va tibbiyot muassasalarini tibbiyot jihozlari bilan ta'minlash qiyinchiliklar tug'dirmaydimi, degan savolni ko'tardi.

Bu bo'yicha qonun tashabbuskorlari atroflicha tushuntirish berib o'tdi.

Savol-javoblardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.

Huquq va erkinliklar kafolati

Bir guruh deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan – "Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqqa saqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun loyihasi bilan tergov hibsonalarida ushlab turilgan va qamoqqa olingan shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan normalarni takomillashtirish taklif etilmoqda.

Qonun loyihasining qabul qilinishi qamoqqa olingan shaxslarni axloqan tuzatish ishlari natijadorligini oshirishga, Konstitutsiya normalarini hayotga samarali tatbiq etishga, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga keng yo'l ochadi.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilindi.

Sportda dopingning oldini olish tartibi takomillashtirilmoqda

Majlisda "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilindi.

Ta'kidlanganidek, yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, sport inshootlarini zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash, mahalladan boshlab aholi, ayniqsa, yoshlar o'r-tasida ommaviy sport musobaqalarini tizimli tashkil etish orqali sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Byudjetdan sohaga ajratilayotgan mablag'lar sezilarli ravishda oshib, ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanuvchi oilalarga zarur sharoit yaratish, aholi va yoshlar o'rtasida

ommaviy sport musobaqalarini ommalashtirish hamda qiziqishlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu qonun loyihasi bilan aholini ommaviy sportga jalb qilish va ommaviy sport tadbirlarini tizimli o'tkazib borish, sport turlarini e'tirof etish va ularning reestrini yuritish tartibini takomillashtirish, sport musobaqalari natijalariga qonunga xilof ravishda ta'sir ko'rsatishning oldini olish va unga qarshi kurashish choralari belgilanmoqda.

Milliy olimpiya va paralimpiya qo'mitalarining huquqiy maqomi va vakolatlari, Paralimpiya, Surdlimpiya, Maxsus olimpiya va Ko'zi ojizlar sporti harakatlariga doir masalalar qonun darajasida belgilab qo'yilmoqda.

Qonun loyihasi bilan Milliy antidoping agentligining huquqiy maqomi ham belgilanib, sportda dopingning oldini olish va unga qarshi kurashish tartibi takomillashtirilmoqda. Qolaversa, ish beruvchilar xodimlarning sport bilan shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratishi ko'zda tutilyapti. Sport sohasidagi nizolarni esa sudgacha hal etish tartibini joriy qilish nazarda tutilmoqda.

Majlisda qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilindi.



Yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

Majlisda Favqulodda vaziyatlar vaziri B. Qudratxo'jayevning "Aholini yong'inlardan muhofaza qilish, xususan, ijtimoiy soha obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshittildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish maqsadida yong'inlar, is gazidan zaharlanish, texnik nosozliklar va boshqa xavfli holatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hamda 2025-2026-yillarga mo'ljallangan favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan.

Davlat nazorati inspektorlari tomonidan ro'yxatga olingan 323 093 ta korxona va tashkilotning 79 432 tasida batafsil va nazorat tartibidagi tekshiruvlar o'tkazilgan. Ular davomida korxona va muassasalar rahbarlariga davlat nazorati inspektorlarining yozma ko'rsatmalari taqdim etilib, ko'plab qonunbuzilish holatlari bartaraf qilinishiga erishilgan.

Olib borilgan profilaktik tadbirlar davomida yong'in xavfsizligi qoidalarini targ'ib qilish va bu borada fuqarolarning savodxonligini oshirish maqsadida jami 9 millionga yaqin fuqarolarni qamrab olgan holda suhbat va yo'l-yo'riqlar o'tkazilgan.

Vazirning qayd etishicha, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumta'lim maktablarining yong'in xavfsizligi talablariga rioya etilishi yuzasidan rejaga asosan tekshiruvlar o'tkazilib, ta'lim tashkilotlari mas'ullari bilan aksariyat obyektlarning yong'inga qarshi ahvolini yaxshilashga qaratilgan

bir qator ishlar amalga oshirilgan. Nazorat tadbirlari jarayonida obyektlarda aniqlangan 68 536 ta qoidabuzarlikdan 32 059 tasining bartaraf qilinishiga erishilgan.

Oliy va o'rta ta'lim muassasalaridagi nazorat tadbirlari jarayonida obyektlarda aniqlangan 4 252 ta qoidabuzarlikdan 2 175 tasi, tibbiyot muassasalarida esa 15 402 ta qoidabuzarlikdan 7 284 tasi bartaraf etilgan.

Majlisda deputatlar tomonidan bir qator savollar o'rta-ga tashlandi. Xususan, O'zXDP fraksiyasi a'zosi Sayyora Imomova ma'ruzada mahalla muhofazasining pilot loyihasiga alohida to'xtalib o'tilganini qayd etib, ushbu tizim qanday ishlashi va mahallalarda qanday funksiyalarni bajarishi bilan qiziqdi.

O'zLiDeP fraksiyasi a'zosi Shuhrat Sharafutdinov esa aholini gaz xavfsizligi bo'yicha xabardor qilish va zaharlanish holatlarini kamaytirish maqsadida yangi qurilayotgan uy-joylarda qanday qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish rejalashtirilgan, deya vazirga yuzlandi.

Vazir berilgan savollar yuzasidan atroflicha ma'lumot berib o'tdi.

Deputatlar aholi hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish eng ustuvor vazifa ekanini ta'kidlab, profilaktik ishlar samaradorligini oshirish, mas'ul idoralar, mahalliy hokimiyatlar hamda jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirish zarurligini ta'kidladi.

Majlisda Favqulodda vaziyatlar vazirining axboroti ma'lumot uchun qabul qilindi va kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta'minlashga kelishib olindi.

Vazirga parlament so'rovi yuborildi

Deputatlar Qishloq xo'jaligi vaziriga "Mamlakatimizda eksportbop meva-sabzavot mahsulotlari hajmini ko'paytirish va maqsadli eksport ko'rsatkichlarining bajarilishi borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida"gi parlament so'rovini yuborish haqidagi masalani ko'rib chiqdi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda yer resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, meva-sabzavot mahsulotlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish, mahsulotlar yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va eksportda huquqiy asoslarni mustahkamlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, joriy yilning yanvar – noyabr oylarida qiymati 2,9 mlrd. dollarga yaqin meva-sabzavot va tayyor oziq-ovqat mahsulotlari eksportga chiqarilgan. Eksport geografiyasi ham kengayib, umumiy hisobda 95 ta davlatni tashkil etgan.

Qonunchilik palatasi deputatlarining hududlarda o'tkazgan nazorat-tahlil tadbirlari davomida sohada erishilgan yutuqlar bilan birga, hali o'z yechimini kutayotgan masalalar borligi ham aniqlandi. Xususan, yangi turdagi iqlimga chidamli, tezpishar, kam suv talab qiladigan, yuqori darajada hosildor bo'lgan navlarni tanlab olish, mazkur mahsulotlar yetishtirilishining mahalliy mahsulot yetishtiruvchilar va meva-sabzavotchilik korxonalarini tomonidan o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularni eksportga yo'naltirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Majlisda yuqoridagilardan kelib chiqib, sohaga xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha ishlarning borishi, oziq-ovqat sanoatining kelgusi yillardagi eksport prognozlariga va mahsulotlar drayveri ko'rsatkichlariga erishish, zamonaviy va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport ko'rsatkichlarini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berish haqida Qishloq xo'jaligi vaziriga parlament so'rovi yuborildi.

"Xalq so'zi".

Endi qaysi dori vositalari retseptsiz berilishini “my.gov.uz” portali orqali bilish mumkin.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqob bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 10 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taqabq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mullifiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhif SH. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 01.50 Topshirildi – 02.00

1 2 3 4 5 6